

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

“KIRITDI”

Toshkent to‘qimachilik va yengil
sanoat instituti Ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektor



N.B. Mirzayev

“17” 06 2025-y

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi



“18” 06 2025-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari

60210400 – “Dizayn: kreativ loyihalash” ta’lim yo‘nalishi uchun

Toshkent-2025

Dastur Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti (TTYSI) o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (2025 yil 23 may, 10-sonli majlis bayoni).

Tuzuvchilar:

X.H.Kamilova

TTYSI o'quv ishlari bo'yicha prorektori, "Moda va dizayn" kafedrası professori, t.f.d.

U.A.Vaxidova

TTYSI "Moda va dizayn" kafedrası mudiri, dotsent

R.T.Axmedov

TTYSI "Moda va dizayn" kafedrası dotsenti

Taqrizchilar:

Z.P.Xaitova

K.Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizain instituti (MRDI) "Libos dizayni" kafedrası mudiri

R.T.Norchayev

K.Bexzod nomidagi MRDI" Amaliy grafika va badiiy fotografiya" kafedrası mudiri, dotsent

KIRISH

Respublikamizda to'qimachilik va yengil sanoat sohasini takomillashtirish, raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari o'rtasida bozor munosabatlarini shakllantirish, paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy klaster shakllarini joriy qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, milliy brendlarni yaratish va targ'ibot qilish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni amalga oshirish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish va aholi bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmokda.

Badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkor mutaxassis ko'nikmalarini o'zida namoyon etuvchi va sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishi va uslubini topishda, ayniqsa badiiy loyihani yechimi, kostyum kompozitsiyasini mazmun va mohiyati jihatidan mukammalligi uchun muhim bo'lib, ijodiy tassavurni, obrazli-konstruktiv taffakur va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini aniqlashda, hamda malakali dizaynerlar tayyorlash uchun **"Chizmatasvir"** va **"Kompozitsiya"** fanlari sifatida zaruriyati juda katta.

60210400 – "Dizayn: kreativ loyihalash" ta'lim yo'nalishi bo'yicha Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi o'rta maxsus va kasb-hunar maktablardagi dizayn fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. 60210400 – "Dizayn: kreativ loyihalash" ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonda chizmatasvir va kompozitsiya fanidan amaliy ish bajaradilar. Bajarilgan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Jami ball	Jumladan:	
	"Chizmatasvir" fanidan	"Kompozitsiya" fanidan
156	93	63

FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Kostyumni yaratish – bu kiyimning xilma xil shakl va konstruktsiyalarini doimo izlash jarayonidir, liboslar eskizlarini ishlash va loyihani materialda bajarishgacha bo'lgan bir necha bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Chizmatasvir – barcha tasviriyy san'at turlarining (rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, grafika, haykaltaroshlik va hokazolar) asosi hisoblanadi. "Chizmatasvir" fani "Dizayn" ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun asosiy vazifasini o'tab, ularda badiiy didlarini oshirishda muhim o'rinni egallaydi.

Abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:

- shakl va hajmni tahliliy idrok qilish va anglash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv idrok etish mahorati;
- shaxsiy mualliflikdagi grafika ishi.

Vazifani bajarishda abituriyent quyidagilarni bilishi kerak:

- qog'oz yuzasiga qo'yilmani konstruktiv to'g'ri joylashtirish;
- tasvirlanayotgan qo'yilmani nisbatlarini to'g'ri aniqlash va hajm chiqarish yechimlarini ifodalay olish.

Kompozitsiya – barcha san'at turlarini asosiy tushunchasi bo'lgani uchun talabalar ushbu tushunchaga oid qoidalarini bilishi kerak.

Kompozitsiya kursi talabalarda obrazli o'ylashni, fantaziyani, didning takomillashuvini hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, dizaynerlik faoliyati mobaynida korxonalarda liboslarni, badiiy loyihalash, milliy moda va uslub yaratishda kasbiy bilim va ko'nikmalarni hosil qiladi.

Ijodiy imtihonning asosiy maqsadi – institutga kiruvchining kasbiy layoqatini, ijodiy qobiliyatini va badiiy tayyorgarlik darajasini, obrazli-konstruktiv tafakkurini hamda yangi modellar eskizlarini ishlab chiqishi ko'nikmalarini aniqlash. Abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:

- shakllarni emotsional va hissiy qabul qilish, ifodali va mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv fikrlash mahorati;
- original obraz, g'oyani topa olish, fantaziya, tasavvur qilish qobiliyati;
- shaxsiy mualliflikdagi eskiz va badiiy grafika;
- emotsional ranglar holatini, syujet va tasavvur, ranglar gammasini idrok qilishi va ifodalashi;
- berilgan mavzuning kompozitsiyaviy va rang yechimlarining o'zaro uyg'unligi.

1. 60210400 – “Dizayn: kreativ loyihalash” ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlar uchun fanlardan ijodiy imtihon dasturi

1.1. “Chizmatasvir” fani bo'yicha.

Imtihonda abituriyentlar gipsli modelni (klassik haykal boshini) naturadan chizmachilik asboblari va ko'rgazmali materiallardan foydalanmagan holda, grafit qalamda bajaradilar. “Chizmatasvir” fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig'idan namuna 1-ilovada keltirilgan.

Chizmatasvir **50x70** formatdagi planshetga tortilgan qog'ozda (vatman) **6 soat** mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning chizmatasvir ishlari bitgandan so'ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash me'zoni asosidagi **93 balli** shkala bo'yicha baholanadi.

1. Chizmatasvir bo'yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o'tkaziladi.
2. Auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagi stolga borib joylashadi.

3. Abituriyent amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan **50x70** formatdagi planshetga tortilgan qog'oz muxrlanadi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi.

4. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo'l qo'yilmaydi.

5. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to'ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi.

6. Har bir auditoriyada abituriyentlar bilek tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo'lishi kerak:

- turli och-to'qlikdagi grafit qalamlar;
- yumshoq o'chirg'ichlar;
- **50x70** hajmdagi qog'oz (vatman) tortilgan planshet;
- qalam ochish uchun ochqich yoki scalpel.

7. Zarur bo'lgan hollarda abituriyentning arizasiga muvofiq buzilgan qog'oz almashtirib berilishi mumkin, bunda dastlabki qog'oz yo'q qilinadi. Yangi berilgan qog'oz ham shtampli bo'lishi lozim. Abituriyent qog'ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo'shib bermasligi to'g'risida oldindan ogohlantiriladi.

8. Abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo'yish va suratga olish qat'iy qat'iy taqiqlanadi.

9. Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so'ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash me'zonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Qo'yilgan ballar so'z bilan ham yoziladi va baholar qog'ozning ish bajarilgan tomonida bo'lishi lozim.

10. Baholar imtihon qaydnomalariga ko'chiriladi. "Chizmatasvir" fani bo'yicha imtihon bahosi natijalari 1-3 kun muddatda institut rasmiy "web-saytida" e'lon qilinadi.

11. Baholangan ishlar apellyatsiya o'tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).

12. Abituriyentlar oliy ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan sanitariya gigiyena qoidalarini so'zsiz bajarishlari shart. Mazkur qoidalarga abituriyentlar tomonidan amal qilmaslik imtihon tartiblarini buzgan hisoblanadi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnoma tuzilib chetlashtiriladi.

“Chizmatasvir” fani bo‘yicha abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Mezonlar	Maksimal ball	Abituriyent to‘plagan ball
1	Tasvirni qog‘oz planshetga kompozitsion to‘g‘ri joylashtirish	20,0	
2	Naturaning konstruktiv tuzilishlari va proporsiyalari to‘g‘ri ko‘rsatilganligi	20,0	
3	Soya-yorug‘ qonuniyatlarini to‘liq ifodalash va tus munosabatlarini aniqlash	20,0	
4	Materiallik (gips, mato va b.) to‘g‘ri ko‘rsatilganligi	15,0	
5	Tasvirni yaxlit holatga keltirib ishni grafik jihatdan umumlashtirish va yakunlash	18,0	
	Jami	93	

Izoh: Abituriyentlarning natijalarini baholash, ko‘rsatgan natijalariga muvofiq 100 (yuz) dan 1 (bir) ulushda baholanadi.

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar eng yuqori 93 ballga ega bo‘ladi.

Ijodiy imtihonlar bo‘yicha ijodiy sinovlar o‘tkazuvchi komissiya a‘zolari mutaxassislik kafedralari professor-o‘qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

1.2. “Kompozitsiya” fani bo‘yicha

Imtihonda abituriyentlar tomonidan turli texnikada (akvarel, grafika, kollaj, applikatsiya va b.) berilgan mavzu bo‘yicha liboslar to‘plami kompozitsiyasi bajariladi. “Kompozitsiya” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig‘idan namuna 2-ilovada keltirilgan.

Kompozitsiya 50x70 yoki 40x60 formatdagi planshetga tortilgan qog‘ozda (vatman) **5 soat** mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning kompozitsiya ishlari bitgandan so‘ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash mezoni asosida maksimal **63**-balli shkala bo‘yicha baholanadi.

1. Kompozitsiya bo‘yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o‘tkaziladi.

2. Auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagi stolga borib joylashadi.

3. Abituriyent amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan 50x70 yoki 40x60 formatdagi planshetga tortilgan qog‘oz muxrlanadi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi.

4. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to'ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi.

6. Har bir auditoriyada abituriyentlar bilek tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo'lishi kerak:

- 50x70 hajmdagi qog'oz (vatman) tortilgan planshet;
- har xil yumshoqlikda grafit va rangli, uchi o'tkirlangan qalamlar;
- avtomat tarzda ishlaydigan 0,5 va 0,7 mm qalinlikdagi grifellarga ega qalamlar (dozatorlar);
- yumshoq o'chirg'ichlar;
- qalam ochish uchun ochqich yoki skalpel;
- kompozitsiyani rangda bajarish uchun akvarel, guash bo'yoqlari, moy qalam, geleviy ruchkalar, palitra va suv uchun idish.

Bundan tashqari kompozitsiyani bajarayotganda abituriyent o'zining turli texnik qobiliyatlariga bog'liq boshqa instrumentlarga ham ega bo'lishi mumkin, lekin quyidagilarga ruxsat etilmaydi:

- moy bo'yoq asosidagi bo'yoqlar va uzoq vaqtni (15 minutdan ortiq) talab etadigan bo'yoqlar;

- maxsus qotish jarayonini talab qiladigan pastel va chizilgan kompozitsiya yengil o'chib ketadigan badiiy materiallardan foydalanish.

7. Zarur bo'lgan hollarda abituriyentning arizasiga muvofiq buzilgan qog'oz almashtirib berilishi mumkin, bunda dastlabki qog'oz yo'q qilinadi. Yangi berilgan qog'oz ham shtampli bo'lishi lozim. Abituriyent qog'ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo'shib bermasligi to'g'risida oldindan ogohlantiriladi.

8. Abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo'yish va suratga olish qat'iyon taqiqlanadi.

9. Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so'ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash me'zonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Qo'yilgan ballar so'z bilan ham yoziladi va baholar qog'ozning ish bajarilgan tomonida bo'lishi lozim.

10. Baholar imtihon varaqasi va imtihon qaydnomalariga ko'chiriladi. "Kompozitsiya" fani bo'yicha imtihon bahosi natijalari 1-3 kun muddatda institut rasmiy "web-saytida" e'lon qilinadi.

11. Baholangan ishlar apellyatsiya o'tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).

12. Abituriyentlar oliy ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan sanitariya gigiyena qoidalarini so'zsiz bajarishlari shart. Mazkur qoidalarga abituriyentlar tomonidan amal qilmaslik imtihon tartiblarini buzgan hisoblanadi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnoma tuzilib chetlashtiriladi.

**“Kompozitsiya” fanidan imtihon topshiruvchi abituriyentlar
quyidagi shartlarni bajarish lozim:**

- kompozitsiya mavzusi original jihatdan topilganligi, ishning kompozitsion g‘oyaviy mazmundorligi;
- badiiy ifodaning mutaxassislikka mosligi, turli shakllarning kompozitsion jihatdan to‘g‘ri ishlatilganligi;
- chizilgan eskizlarning bir-biriga uyg‘unligi, elementlarning to‘g‘ri topilganligi;
- berilgan topshiriqning mazmuni, ma‘nosi to‘liq ochilganligi, bajarilgan ishni ashyoda noziklik bilan ishlanish mahorati, ishning tugatilganligi.

**60210400 – “Dizayn: kreativ loyihalash” ta’lim yo‘nalishi kompozitsiya
bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihoni uchun mavzular ro‘yxati**

1. Romantik uslubidagi ayollar bashang kiyimi to‘plami.
2. Pret-a-porte uslubidagi ayollar kundalik kiyimi to‘plami.
3. Sport uslubidagi ayollar kiyimi to‘plami.
4. Klassik uslubidagi ishbilarmon ayollar kostyumi.
5. O‘zbek milliy kostyumi elementlarini qo‘llab yoshlar kiyimi to‘plami.
6. Milliy uslubdagi ayollar kiyimi to‘plami.
7. Yozgi-bahorgi mavsumga mo‘ljallangan bashang kiyimi to‘plami.
8. Qishki-kuzgi mavsumga mo‘ljallangan kundalik kiyimi to‘plami.

**60210400 – “Dizayn: kreativ loyihalash” ta’lim yo‘nalishining kasbiy (ijodiy)
imtihonda “Kompozitsiya” fani bo‘yicha abituriyent tomonidan bajarilgan
amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:**

№	Mezonlar	Maksimal ball	Abituriyent to‘plagan ball
1.	Kostyum kompozitsiyasini qog‘ozga kompozitsion to‘g‘ri joylashtirish.	13,0	
2.	Kompozitsiyaning mavzuga mos tuzilganligi, g‘oyaviy yechimi va kreativligi.	15,0	
3.	Kostyum elementlari va materiallar fakturasini ishlashda rang munosabatlarini to‘g‘ri topilganligi	15,0	
4.	Kostyum kompozitsiyaning bajarilishi texnikasi va to‘liq tugallanganligi	20,0	
	Jami	63	

Izoh: Abituriyentlarning natijalarini baholash, ko‘rsatgan natijalariga muvofiq 100 (yuz) dan 1 (bir) ulushda baholanadi.

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar eng yuqori **63** ballga ega bo'ladi.

Ijodiy imtihonlar bo'yicha ijodiy sinovlar o'tkazuvchi komissiya a'zolari mutaxassislik kafedralari professor-o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

2. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan ijodiy imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Apellyatsiya tartibiga ko'ra arizachining faqat o'z ishini baholanishi doirasidagi e'tirozi qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aristides, Juliette. Beginning Drawing Atelier: An Instructional Sketchbook. Paris: Atelier du Dessin Classique, 2023.
 2. Holmes, Catherine V. How to Draw Cool Stuff: A Drawing Guide for Teachers and Students. – 2nd ed. – USA: Library Tales Publishing, 2020.
 3. X.X. Kamilova, N.A.Isahojayeva, K.R.Fuzailova. Kostyum kreativ grafikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017.
 4. N.A.Isahojayeva, A.F.Karimov, R.T.Axmedov. Chizmatasvir va rangtasvir. – TTYSI bosmaxonasi, 2018.
 5. B.Boymetov. Qalamtasvir. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2013.
 6. Ермолаева Л.П. Основы дизайнерского искусства: декоративная живопись, графика, рисунок фигуры человека. Москва, 2001.
 7. X.X.Kamilova, U.A.Voxidova. Loyihalash. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017.
 8. Hywel Davies. Fashion Designers' Sketchbooks. – United Kingdom, London, 2010.
 9. Bina Abbing. Fashion Sketchbook. Firechild Book, New York, 2012 y
 10. S.Abdurasilov, N.Tolipov. N.Oripova. Rangtasvir. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2006.
 11. B.B.Boymetov, M.S. Tolipov. Plastik anatomiya. – T.: Ilm Ziyo, 2005.
 12. B.B. Boymetov. Chizmatasvir. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2005. -190 b.
 13. S.Bulatov. Rangshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.-160 b.
 14. N.Sodiqova. O'zbek milliy kiyimlari XIX- XX asrlar- T.: G'.G'ulom, 2006.
 15. Зарида Заман. Справочник дизайнера по формам и стилям одежды. Москва, 2008.
 16. Л.А.Сафина, Л.М.Тухтабулина, В.В.Хаматова – Проектирование костюма – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007.
 17. Гусейнов Г.М. Композиция костюма. Москва, 2003
 18. Н.С. Макаеева. Основы художественного проектирования костюма. Практикум.-М.: Академия, 2008.
 19. Ф.М.Пармон. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. -М. “Триада плюс”, 2002.
 20. Ш. Зеленг. Век модельеров. 1900- 1999 – Штутгарт: 2001.
- Axborot manbalari:**
21. <http://modanews.ru/books>
 22. [https://www.elle.ru/moda/fashion-blog/5-sekretov-feshn-illy us tratsi](https://www.elle.ru/moda/fashion-blog/5-sekretov-feshn-illy-us-tratsi)
 23. www.pinterest.ru > pin
 24. www.wmj.ru/moda

Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga
1-ilova

**“Chizmatasvir” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig‘idan
NAMUNA**

Vazifa: Antik davr xaykali bosh qismining akademik chizmatasviri



Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga
2-ilova

**“Kompozitsiya” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig‘idan
NAMUNA**

Vazifa: Berilgan mavzu bo‘yicha liboslar to‘plami kompozitsiyasi

